

Madatov Ilhom Yusup o'g'li,

SamDU Kattaqo'rg'on filiali dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD

e-mail: ilhommadatov7@gmail.com

tel: +998904693830

Boqiyeva Mohinur Nazirovna

SamDU Kattaqo'rg'on filiali

2-kurs talabasi

e-mail: mohinurboqiyeva2@gmail.com

tel: +998-94-698-33-32

MAMLAKATIMIZDAGI INKLYUZIV TA'LIM MUAMMOLARI VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI

Annotatsiya: Mamlakatimizda inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy qilinishi, imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishiga qaratilgan e'tibor, maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida davlatimiz tomonidan chiqarilgan qarorlar va amalga oshirilgan yutuqlar bilan birga ayrim hal etilishi kerak bo'lgan muammolar haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich, maxsus pedagog, imkoniyati cheklangan bola, mutaxassis.

Аннотация: Реализация инклюзивного образования в нашей стране, внимание к образованию детей с ограниченными возможностями, решения, принятые нашим государством относительно обучения детей с особыми потребностями в системе общеобразовательных учреждений и достижения, должны быть решены, краткая информация о проблемах. .

Ключевые слова: инклюзивное образование, подъемное устройство, пандус, ручка, специальный педагог, ребенок-инвалид, специалист

Abstract: Implementation of inclusive education in our country, attention to the education of children with disabilities, decisions issued by our state regarding the education of children with special needs in the system of general education institutions and achievements should be resolved. brief information about the problems.

Key words: inclusive education, lifting device, ramp, handle, special pedagogue, disabled child, specialist.

Kirish.

Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan yoshlarning ta'lim olishlari, hamda ularning yetuk inson bo'lib yetishishlari bosh maqsad qilib olingan. Bunda sog'lom bolalar bilan bir qatorda imkoniyati cheklangan bolalarga ham bir xilda ta'lim berishga qaratilgan inklyuziv ta'limning me'yoriy-huquqiy asoslari va mazmunini ishlab chiqish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Bu borada, 2020-yil 23-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni qabul qilinib, inklyuziv ta'lim olish shakli sifatida belgilandi.

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyoqlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etilishidir.

Inklyuziv ta'lim bu maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun individuallashtirilgan va sharoitga qarab o'zgaruvchan, g'amxo'rlik bilan yondasha oladigan ta'lim tizimidir. Ushbu ishlar oddiy, me'yorda rivojlangan bolalar o'quv muassasalarida amalga oshiriladi. Buni amalga oshirish uchun har bir bolaga individual yondashish, nuqsoni dam kelib chiqqan holda ma'lum, u uchun qulay sharoit yaratish, kerak bo'lsa, dastur va rejani qisman o'zgartirish lozim.

Asosiy qismi.

Respublikamizda inklyuziv ta'limni takomillashtirish masalasi hukumatimizning ko'plab hujjatlarida, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqlarida, ma'ruza va chiqishlarida, farmon va qarorlarida o'zining munosib aksini topgan. Xususan, imkoniyati cheklangan yoshlarga ta'lim berish sifatini oshirish hamda maqsadida turli ixtisoslik va yo'nalishlardagi bosma va audiokitoblarga bo'lgan ehtiyoj har olti oyda o'rganilib, shu asosda adabiyotlar ro'yxati shakllantirib borish, oliy ta'lim muassasalarining tegishli ixtisoslik va yo'nalishlari bo'yicha fanlardan audiomateriallar va Brayl alifbosi asosidagi adabiyotlarni chop etish tizimi yo'lga qo'yish bo'yicha qator vazifalar belgilab berilmoqda.

Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishi nihoyatda yuqori e'tiborni talab qiluvchi umumta'lim tizimining sohasi hisoblanib, imkoniyati cheklangan bolalar jamiyatning ijtimoiy qatlamidir, chunki ularning ko'pchiligi kam ta'minlangan oilalarda voyaga yetganlar. Inklyuziv ta'lim - bu imkoniyati cheklangan bolalarni barcha zaruriy vositalar bilan ko'pchilik bolalar uchun amalga oshiriluvchi ta'lim tadbirlariga jalb etishdir.

Maxsus yordamga muhtoj bolalarning umumta'lim maktablarida o'qitish borasida respublikamizda ko'plab ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun ko'rsatiladigan ta'lim sohasidagi xizmatlarini yaxshilashga qaratilgan. Alohida ta'lim olishga ehtiyoji bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil qilish, umumta'lim muassasalarida maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich, eshitish apparati va boshqalar shuningdek, tegishli kadrlar maxsus pedagoglar, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassis) bilan ta'minlash, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga oid chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi bandlar kiritilgan.

Hozirda qurilayotgan "Zamonaviy maktablarda qurishda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyevning 13.10.2020 yildagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha PQ-4860-son qarori qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha: -alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash; -alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik

qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash;

-jamoatchilik o'rtasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

-o'quvchilarning jismoni va aqliy talab-ehtiyojidan va ta'lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini optimallashtirish;

-alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash; -alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi vazifalar belgilangan. Inklyuzivlik-inglizcha so'z bo'lib, inklusif- qo'shish, birlashtirish ma'nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan qo'shib birgalikda o'qitish jarayonini ifodalaydi.

Inklyuziv ta'lim jismoniy va psixik imkoniyatlari cheklangan o'quvchilarni sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda o'qitishni anglatadi.

2020 -yil 13-oktyabrda qabul qilingan «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'limtarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident qarorida bu boradagi asosiy muammolar ko'rsatilgan: • alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar o'qitiladigan ayrim ta'lim muassasalarida ular uchun to'siqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmagan; •alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalari zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan to'liq ta'minlanmagan; •alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta'lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo'lga qo'yilmagani natijasida ota-onalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan farzandlarini umumta'lim muassasalarida o'qitishi mumkinligi haqida yetarli ma'lumotga ega emas;

•alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish bilan bog'liq muammolarni hal etish masalalariga mahalliy ijro hokimiyati organlari tomonidan yetarli e'tibor qaratilmayapti; • pedagogika yo'nalishidagi OTMlar o'quv dasturlariga inklyuziv ta'lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmagan; •pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta'lim dasturlari kiritilmagani, shuningdek, bo'lajak pedagoglarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jalb qilingan ta'lim muassasalarida amaliyot o'tamayotgani ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda jismoniy yoki aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan 86 ta ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasasida 21 ming 365 bola ta'limtarbiya olmoqda.13 ming 868 o'quvchiga esa uyda yakka tartibda ta'lim beriladi.Bugungi kun talablari

asosida inklyuziv ta'limni joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni loyihasiga inklyuziv ta'lim tushunchasi kiritildi.Bu borada Prezidentimizning 2018-yil 5- sentyabrda qabul qilingan "Xalq

ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori tizim rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu hujjat asosida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan rivojlanishida turli nuqsoni bo'lgan hamda davolanishga va sog'lomlashtirishga muhtoj bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta'lim- tarbiya olishiga xizmat qiladigan moslashuv muhitini yaratish bo'yicha alohida vazifalar belgilangan.

Bugungi kunda jamiyatimizdagi insonlarning maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar(insonlar) bilan qo'shib ketmasligi, birgalikda harakat qilmasligi, ularga boshqacha ko'z bilan qarashlari tufayli ular jamiyatda uzilib qolishmoqda.Maxsus yordamga muhtoj bolalar ham boshqa sog'lom bolalar singari o'qib, ta'lim olish huquqiga egadirlar.Ularning jamiyatdan uzilib qolmasligi va boshqa bolalar bilan birgalikda ta'lim olishlari uchun, ularga yordam berib,ularni qo'llab - quvvatlashimiz,fikrlarini hurmat qilishimiz kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Inklyuziv ta'lim.Darslik/Madatov.I.Y.;O'zR Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali,2024-240 b. 2.Muzaffarova X.N.Inklyuziv ta'limning muammolari va istiqbollari // Xalq ta'limi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali.2024-yil 3-son.

3.Shomurodova.R.Sh.Inklyuziv ta'lim.(Xalqaro va O'zbekistondagi tajribalar). Toshkent -2011

4.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.30.04.2023-yil.

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 13.10.2020 yildagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori.

6.Muzaffarova X.N., Tursunqulova O. Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy qilish masalalari// zamonaviy taraqqiyotda ilm-fan va madaniyatning o'rni nomli respublika ilmiy amaliy konferentsiyasi 20.06. 2021yil .

7.Pedagog" respublika ilmiy jurnali 6-tom 11-son / 2023-yil / 15-noyabr.